

## **TYUTORLIK FAOLIYATINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**O‘rino**va Nilufar Muhammadovna

FarDU dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tyutorlik faoliyati mohiyati, uning pedagogik-psixologik xususiyatlari taxlil etilgan. Shuningdek, tyutorlik faoliyati modelini amalga oshirish prinsiplari ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tyutorlik, tyutorlik faoliyati mohiyati, pedagogik-psixologik xususiyatlar, prinsiplar.

Hozirgi globallashuv sharoitida barcha sohalarning tayanchi, fundamenti — ta’limga borib taqaladi. Chunki aynan ta’lim dargohlaridan jamiyat uchun kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislar yetishib chiqmoqda. Shu jihatdan, zamon talablariga mos, irodali, har tomonlama mulohazali, manfaatlari bunyodkorlik g‘oyasiga qaratilgan yosh kadrlarni tarbiyalash bugungi kun ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi.

Tyutorlik tizimi ham ana shu maqsadlarga yo‘naltirilgan. U oliy ta’lim muassasasida tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim tarkibiy qismidir. Jahon xalqlari pedagogikasida tyutorlik faoliyatiga oid juda keng tajribalar shakllantirilgan. Mazkur o‘rinda ilmiy tadqiqotimiz doirasida xorij tajribasini o‘rganishni lozim topdik.

Rossiyalik pedagoglar I.V.Karpenkova va E.V.Kuzminaning fikricha, “Tyutorlik - bu amaliyot, va shaxsiy ta'lim strategiyasini hisobga olgan holda qurilish, insonning shaxsiy salohiyati, ta'lim va ijtimoiy asosiy faoliyatning infratuzilmasi va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan harakat”[1; 133.] .

Professional standartga ko'ra, tyutor - bu ta'limda tyutorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan pedagog xodimga nisbatan ishlatiladi. T.M.Kovalyovanning ta'kidlashicha, tyutor bu - pedagogik faoliyatni aniqlash va ta'limni individuallashtirish, talabning ta'lim motivlari va qiziqishlarini rivojlantirish, ta'lim dasturi bilan ishlash uchun davlat, oila, shaxsning xohish-irodasini hisobga oladigan faoliyat hisoblanadi[5;246. ].

A.N. Bogachevning olib borgan tadqiqoti asosida shunday fikrga to'xtaladi: "Tyutorlik faoliyati – bu ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan ta'limni individuallashtirish, ta'lim motivlari va qiziqishlarining fenomeni va rivojlanishini ta'minlash uchun yaratilgan individual ta'lim dasturidir".

A.N.Bogachevning tadqiqotiga ko'ra, tyutorlik faoliyati quyidagilardan iborat:

- ta'lim oluvchining ta'lim harakatini tashkil etish;
- ta'lim oluvchining yutuqlarini doimiy reflektiv korrelyatsiyasiga e'tibor berish;
- ta'lim oluvchining qiziqish va intilishlaridan xabardor bo'lish.

A.V. Aleksandrovaning olib borgan tadqiqoti asosida tyutorlik faoliyatiga shunday fikr bildiradi: "Tyutor yoki har qanday o'qituvchi, tyutorlik funksiyalarini bajarish, mashg'ulotning dastlabki bosqichlarida, ta'lim sohasida ta'lim oluvchining yo'l boshchisi sifatida ishlaydi"[2;67.].

Amerikalik olim, psixolog, gumanist Karl Rensom Rodjers tyutor maqomini quyidagicha izohlaydi:

"Tyutor-bu:

- ustoz;
- vositachi;
- ta'lim sohasida mustaqil qaror qabul qilishni o'rgatadigan inson;
- ta'lim jarayonni qo'llab-quvvatlovchi shaxs".

“Tyutorlik faoliyati ta’lim muhitida qo’llab-quvvatlovchi pozitsiya, o’z-o’zini tarbiyalash, individual ta’lim muhitini izlash va ta’lim va tarbiya madaniyati parallel ravishda shakllantiradigan kasbdir”. (A. Maslou, F. Perlz, E. Shostrom).

AQShda an’anaviy yozgi tyutorlik universitetlari ishtirokchining shaxsiy, mualliflik harakatlarini amalga oshirish, uning shakllanishi uchun sharoit yaratmoqda.

Amerikalik pedagog-psixolog A.Rean tyutorlik faoliyatiga pedagogik faoliyatning "mahsuldorligi" jarayoni: konseptual va metodologik muammolar sifatining shakllanishi tushunchasini olib kirib, ta’lim va uning maqsadi shaxsning o’zini o’zi anglashiga, psixologik "o’zini tarbiyalash"ga yordam beradi – deb ta’kidlagan[3;11-16].

Tyutorlikda eng muhim rol organizatsiyasi odatiy harakatlar refleksiya–loyihalar, jarayonlar, natijalarning doimiy tahlili asosida ifodalanadi. Samarali fikrlash, muammoni hal qilish, optimal vazifalar, samarali usul, (moslashuvchanlik) tayyorlanish jarayonida namoyon bo’ladi.(Gilford, 1968; Yermakova, 1987; Kalmikova, 1981).Tyutorlik faoliyati quyidagi sifatlari bilan ajralib turadi: ta’lim jarayonini qayta baholash; oldingi natijalar asosida qayta qurish, ta’lim berish; ijtimoiy faoliyat imkoniyatlari faol ravishda ijobiy tomonga o’zgartiriladi;ma'lumotlarni yangi shartlar bilan yangilash; yangicha fikrlash; moslashuvchan bo’lishga qaratilgan ijodiy jarayon[6; 58. ].

Tyutor o’z faoliyati davomida talabalarga ijtimoiy-tarbiyaviy manfaatlarini, ehtiyojlarini qondirish, o’z qobiliyatlarinini ko’rsatish, o’z-o’zini baholash va boshqalar bilan birgalikda harakat qilishda maqbul xulq-atvor shaklini tanlash imkoniyatini taqdim etishi kerak. (A.Rossoxin)

AQSH pedagoglari, masalan Jon Jems, tyutorlik faoliyatida pragmatizm, ya’ni tarbiyaning amaliy natijalarini ustuvor qo’yishadi. Unga ko’ra, shaxsga kelgusi faoliyatida zarur bo’lgan bilim, fazilatlar va ko’nikmalar shakllantirilishi kerak.

Mazkur masalalardan ma'lum bo'ladiki, jahon xalqlari pedagogik tajribasida ko'p hollarda tyutorlik faoliyatining amaliy jihatlariga e'tibor qaratiladi. Bugungi kunda ham tyutor-o'qituvchilar ana shu tajribalarni o'rganishi, o'zlashtirishi va amaliy faoliyatda qo'llay olishini taqazo qiladi. Tashkilotda tarbiyachi vazifasini bajaruvchi tyutorlar rejalarida tarbiyalanuvchilarni hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha vazifalar olib borilishi zarur.

Bugungi kunda tyutorlik faoliyatini modelini yaratishda quyidagi asosiy prinsiplar muhim sanaladi:

1. Talabalarni nafaqat ta'lim jarayoni, balki hayotiy rivojlanish jarayoniga jalb qilish uchun o'zining faol pozitsiyasini shakllanishiga sharoit yaratish;
2. Talabalarga o'z taqdirini o'zi belgilash, shaxsiy qadr-qiyamatni amalga oshirishda yordam berish;
3. Ta'limda ta'lim oluvchilarning qiziqish va shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyatlarini hisobga olish[7;301.].

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Verxozina A.V.. Tyutor kak pedagogicheskaya spetsialnost v sisteme professionalnogo obrazovaniya. *Studencheskiy vestnik*. 2015. 133 s.
2. Dudchik S.V. Osobennosti organizatsii tyutorskogo soprovojdeniya v nachalnoy shkole // *Materiali Vserossiyskogo nauchno-metodicheskogo seminara*.-M.: APKiPPRO, 2009. 67 s.
3. Erikson M. (2002). A developmental dilemma: education stakeholders' commitment to art learning. *Art education*, 55(1), 11-16 s.
4. Xoliqov.A. "O'qituvchi faoliyatida pedagogik mahoratning o'rni". *Ilmiy maqolalar to'plami.TDPU Ilmiy axborotlari*. 2019/3(20). 15 bet.
5. Kovaleva T.M., Kobisha E.I., Popova S.Y., Terov A.A., Cheredilina M.Y. *Professiya «tyutor»*. M.-2012. Tver: «SFK-ofis». –246 s
6. Ibragimovna, T. I. (2023). Preparing Future Educators for the Formation of Life Skills in Students. *World of Science: Journal on Modern Research*

7. Muhammadovna, O. R. N. (2022). TALABA SHAXSINI INDIVIDUAL RIVOJLANTIRISHDA TYUTORLIK FAOLIYATINING ASOSIY KONSEPTSIYALARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 144-149.

8. Mukhammadovna, U. N. (2023). IMPLEMENTATION OF TUTOR'S SUPPORT MODEL IN HIGHER EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 4(03), 58-64.

9. O'Rinova, N. M. (2023). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 301-307.

10. O'rinova, N. M., & Muminova, N. J. (2022). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'QUV-KVEST TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY JIHATLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 460-472.

11. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION. In *Конференции*.

12. Tuychiyeva, I., & Jo'Rayeva, S. (2022). OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA KREDIT-MODUL TIZIMINING AHAMIYATI. *Science and innovation*, 1(B7), 1349-1354.

13. Urinova, N. M., & Abdullaeva, N. (2021). Opportunities to use project-based teaching technology in the development of students' research competence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2344-2348.

14. Ахмедов, Б. А., Сиддиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2020). МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ

УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, (9 (60)), 20-22.

15. Сиддиқов, Б. С., & Джалалов, Б. Б. MODERNIZATION OF EDUCATION-THE FUTURE INNOVATIVE COMPETENCE OF TEACHERS AS A MAIN FACTOR OF FORMATION.

16. Уринова, Н. М. (2020). ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТЛАРИДА БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ МУЗЕЙ ПЕДАГОГИКАСИ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI-2№ 6).

17. Уринова, Н. М., & Абдуллаева, Х. (2022). ТЬЮТОРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ, УНИНГ ТАРИХИЙ ВА ЗАМОНАВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 387-395.